



ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Babamatov Tolib

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0002-0679-2320
tolib_1980@inbox.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarni joriy etishning ahamiyati, zarurligi hamda respublikamizda islom moliyaviy xizmatlaridan foydalanishni rivojlantirish, shuningdek, uning afzalliklari tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Xususan, O'zbekistonda islom moliyaviy xizmatlaridan foydalanishni rivojlantirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallifning tavsiyaviy yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyaviy xizmatlari, islom bankchiligi, islom darchalari, islom taraqqiyot banki, nobank kredit tashkilotlari, moliyalashtirish.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ

Бабамаатов Толиб

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье рассматриваются значение, необходимость и актуальность внедрения исламских финансовых услуг в нашей стране, а также анализируются возможности и преимущества развития использования исламских финансовых услуг в Республике Узбекистан и перспективы их дальнейшего совершенствования. В частности, освещаются существующие проблемы в развитии использования исламских финансовых услуг в Узбекистане, а также представлены рекомендательные подходы и предложения автора по их преодолению.

Ключевые слова: исламские финансовые услуги, исламский банкинг, исламские окна, Исламский банк развития, небанковские кредитные организации, финансирование.

OPPORTUNITIES FOR THE USE OF ISLAMIC FINANCIAL SERVICES

Babamatov Tolib

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics*

Abstract. This article examines the significance, necessity, and relevance of introducing Islamic financial services in our country, as well as analyzes the opportunities and advantages of developing the use of Islamic financial services in the Republic of Uzbekistan and the prospects for their further improvement. In particular, the article highlights the existing problems in the development of Islamic financial services in Uzbekistan and presents the author's recommended approaches and proposals for addressing these challenges.

Keywords: Islamic financial services, Islamic banking, Islamic windows, Islamic Development Bank, non-bank credit organizations, financing.

Kirish.

Bugungi kunga kelib, dunyo moliya bozorida Islom moliya instrumentlaridan foydalanish g'oyatda dolzarb manbaga aylanib bormoqda. Buni islomiy moliyalash har yili 15-20 foiz o'sishga erishayotgani ham tasdiqlaydi. Islom moliyasi jahon bo'yicha 400 dan ortiq moliya institutlari tomonidan amaliyotda qo'llanib kelinmoqda, uning yillik aylanmasi 800 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Shu boisdan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida yirik islohotlarga yuz burgan mamlakatimiz milliy moliya sektorini rivojlantirishda islomiy moliyasi muhim o'rin tutadi. Xususan, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning yangi istiqbolli yo'nalishlarini joriy etish, davlatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, bank mahsulotlari, islomiy qimmatli qog'ozlar kabi moliya bozorining muqobil vositalarini yaratishda islomiy moliyalashtirish muhim o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida "Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi" (Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2019) deb ta'kidlab o'tdilar.

Islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatishda munosabat bevosita real iqtisodiy aktivlarga yo'naltiriladi, taraflar o'rtasida foyda va zararni bo'lishish yoki savdo amaliyotlariga asosida aniq iqtisodiy natijaga bog'lanadi. Islom moliya xizmatlarida moliyalashtiruvchi (bank, kredit tashkiloti) va moliya mablag'larini qabul qiluvchi loyiha muvaffaqiyati va samaradorligida teng huquqli va birgalikda manfaatdor xamkorlarga aylanadi. Ushbu belgilar bilan islom moliya xizmatlarini ko'rsatish jarayonidagi munosabatlar an'anaviy moliya munosabatlaridan farqlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda islom moliya instrumentlaridan foydalanish talabining o'sishi va ba'zi musulmon mamlakatlari tomonidan muhim moliyaviy resurslarni to'plash natijasida dunyoda keng tarqalmoqda. Shubhasiz, bu borada dunyo olimlari tomonidan islom moliya instrumentlaridan foydalanish yo'llari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Xususan, "Agar insonni o'zi topgan pulini aylanmaga qo'yishga noqodir bo'lsa, uni boshqa korxona faoliyatiga tikib, uning daromadidan ulushini olishi zarur. Bir yarim ming yil avval, islom dini yaratilgan vaqtdagi moliyaviy operatsiyalar nomlari hozir ham davom etmoqda va o'sha tartib qoidalarga asoslangan. Shuning uchun ham Manamadagi, Kuala-Lumpurda va Londondagi hozirgi zamon Islom banklari barcha moliyaviy xizmat turlarini azaliy tamoyillarga amal qilib ko'rsatib kelmoqda". (Batayeva, 2013). Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008). Shuningdek, islom moliyasining o'ziga xosligini yoki asosini tashkil etuvchi beshta diniy xususiyat mavjud, ya'ni riba (foiz), harom (taqiqlangan) yoki halol (ruxsat etilgan), g'arar (noaniqlik) yoki maysir (qimor), zakot va shariat (islom) kengashi islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi"dan farq qiladi (Levis va Algaoud, 2001).

Shuningdek, "Islom moliyasi islom iqtisodiy ta'limotidan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy islomiy moliya xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: aktivlarga asoslangan, moliyalashtiriladigan faoliyatga cheklovlar va kapital hamda tadbirkorlikning uzluksizligi ishlab chiqarish omillari sifatida" talqin etadi (Rafik Yunus al-Misri, 2014). Bundan tashqari "Islom moliyasi – islom tamoyil va qoidalariga to'liq mos keluvchi moliyaviy instrumentlar va qonuniyatlarni o'z ichiga olgan tizim" deya izoh berib o'tgan (Haydarov, 2022). Islom moliyasiga nisbatan XXI asrda qiziqish yuqori bo'lib, ilmiy izlanishlar olib borish va tahliliy materiallar tayyorlash borasidagi ilmiy faoliyat ko'payib bormoqda.

Amalga oshirilgan ushbu ilmiy ishlarda investitsiya faoliyatini islom taraqqiyot banki mablag'lari evaziga moliyalashtirishning nazariy asoslari hamda taraqqiyot banki

instrumentlaridan foydalanish yo'llari to'liq yoritib berilmagan. Umuman olganda bugungi kunda investitsiya faoliyatini islom taraqqiyot banki mablag'lari evaziga moliyalashtirish jahon hamjamiyati uchun birmuncha, milliy iqtisodiyotimiz uchun deyarli yangi bo'lganligi uchun kelgusida ko'plab izlanishlarni talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida mamlakatimizda islom moliyasining nazariy, tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab islom moliyasi an'anaviy moliya tizimi va dunyoviy huquq tizimlarining katta maydonida o'yinga kirdi. Ya'ni islom bank-moliya muassasalari bir maromda va samarali ishlayotgan an'anaviy bank-moliya tizimi bilan mijozlar uchun to'g'ridan-to'g'ri raqobatga kirishdi. Bu holat islom moliyasi tizimi e'tiborini beqiyos va tugal takliflar yaratishdan an'anaviy moliya mahsulotlarini "teskari moslashtirish"ga (reverse engineering) qaratdi, ya'ni an'anaviy huquqshunoslar va islom bankchilari an'anaviy bank-moliya mahsulotlarini har tomonlama o'rganib, mijozlarga matematika nuqtayi nazaridan o'xshash moliyaviy natija beruvchi islom mahsulotlari yaratishga kirishib ketishdi. Tabiiyki, bunda barcha hujjatlar kerakli me'yorlarga rioya qilgan holda rasmiylashtirildi.

Islom moliyasi bugunga qadar rivojlanishning 7 ta davrini bosib o'tdi. Birinchi, shakllanish davri (622–661-yillar)da islom moliya tamoyillari Arabiston yarim orolida yashovchi arablar tomonidan qo'llanilgan. Hatto payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) ham vahiy kelmasidan oldin ana shu tamoyillarga muvofiq tarzda savdo qilgan. Ularning birinchi ayoli Xadicha onamiz esa savdo-sotiq qilish uchun o'z mollari bilan Shom (hozirgi Suriya) davlatiga sayohat qilgan. Foyda taqsimotiga asoslangan shartnoma asosida o'zlariga yordamchilar yollagan. Islomda "mudaraba" deb ataluvchi bu turdagi shartnoma hozir ham qo'llaniladi. Shuningdek, bu davrda mushoraka (foйда taqsimotiga asoslangan yana bir shartnoma), sarroflik (turli pul birliklarini ayirboshlash amaliyoti), murabaha (nasiya savdo), vakillik shartnomalari (qarzni bir kishidan bosh qasiga o'tkazish) ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, o'sha vaqtlarda ribo ya'ni, foizga asoslangan moliyaviy munosabatlar avj olgan edi. Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v)ga vahiy kelganidan so'ng, birinchi navbatda, riboni qo'llash taqiqlangan.

Islom moliyasi rivojlanishining ikkinchi davri (VII–X asrlar) Ummaviylar va birinchi Abbosiylar sulolasi hukmronligiga to'g'ri keladi. Bu vaqtda iqtisodiyot va moliya tizimi qishloq xo'jaligiga bog'liq holda nihoyatda rivojlangan. Ayniqsa, savdo-sotiqning xalq orasida ommalashishi islom moliya tizimining taraqqiy etishiga xizmat qildi. Undan keyingi davrlarda islom moliyasida ba'zan o'sish, ba'zan pasayish holatlari kuzatildi. Ammo har qanday holatda ham unga bo'lgan talab yo'qolmadi. So'nggi, yettinchi davr islom moliyasini jonlantirishdan boshlandi. Bu borada 1970-yillarda qo'yilgan qadam hozirgi davrgacha davom etyapti. Mazkur jarayonda islom iqtisodiyoti va moliyasining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ayni kunga kelib, islom bankchiligida zamonaviy innovatsiya paydo bo'ldi. Avvalgi olti bosqichda yuzaga kelgan iqtisodiy rivojlanish va siyosiy o'zgarishlar ta'sirida, nihoyat, 1960-yillarda Fors ko'rfazi davlatlarining aksariyati zamonaviy bank tizimiga o'ta boshladi. Aynan shu davrda foizsiz bankchilikka asos solindi. Keyinchalik (1970 – 80 yillar) islom banklari va korporatsiyalari tashkil etila boshlandi.

Oxirgi yillarda kichik va o'rta biznes O'zbekistonda 81 foiz bandlikni ta'minlash barobarida, so'nggi 10 yil ichida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti yillik o'rtacha 5 foizdan

yuqori darajada o'sishiga va Markaziy Osiyodagi iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatga aylanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Kichik va o'rta biznes vakillari tomonidan Islom moliyasiga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib, O'zbekiston 2003-yilda IsDBga va 2004-yilda esa ICDga a'zo davlat sifatida qabul qilindi. Ushbu tashkilotlar va hukumat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlar Islom moliyasining O'zbekiston bozoriga kirib kelishiga zamin yaratdi va ushbu sohaga birinchi qadamni qo'yib berdi.

Islom moliyasi bir qator davlatlarda muvaffaqiyatli ishlamoqda. O'tgan yillar davomida "startap" (ya'ni boshlang'ich darajadagi) shaklda rivojlangan islom moliya tizimi bugungi kunga kelib yetarli darajada tajriba orttirdi va mana endi shu orttirilgan tajriba bilan bo'lishish uchun xalqaro miqyosga chiqish vaqti keldi. Islom banklari va butun soha vakillari yangi bozorlarga (ya'ni o'z milliy chegaralaridan tashqariga) dadil chiqib borishi, biznes hamkorlikni va "janub-janub" ko'rinishidagi (ya'ni rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi, masalan, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) a'zolari o'rtasidagi) xalqaro savdoni ilgari surishi va qo'llab-quvvatlashi, hamda islom bank-moliya tizimini joriy qilayotgan davlatlarda to'laqonli huquqiy hamda moliyaviy islom infratuzilmasini yaratish bo'yicha mahalliy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq. Xusasan, "Islom taraqqiyot banki" guruhi tarkibiga kiruvchi "Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi" (ICD) O'zbekistonning bir necha tijorat banklarida islom moliya mahsulotlari va xizmatlari taqdim etuvchi darchalarni ("islom darchalari") ochish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib bormoqda.

O'zbekistonda islom moliyasi bo'yicha biznes vakillari hamda aholi ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham e'lon qilindi. To'g'ridan-to'g'ri va onlayn shaklda o'tkazilgan so'rovda 2 235 nafar biznes vakillari, qariyb 5000 nafar jismoniy shaxslar ishtirok etgan. Natijalarga ko'ra, biznes subyektlarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning esa 56 foizi diniy qarashlari sabab an'anaviy bank kredit xizmatidan foydalanmaydi. Mos ravishda ishtirokchilarning 61 va 75 foizi O'zbekistonda islom moliya muassasalari ish boshlasa yoki islom moliya xizmatlari taklif etilsa, tanlashga tayyor ekanligini bildirgan.

Shuningdek, O'zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun Islom taraqqiyot banki tomonidan 265,000 AQSH dollari miqdorida texnik yordam granti ajratildi.

Ma'lumki, har qanday biznes loyihani amalga oshirish uchun muayyan miqdorda investitsiya (sarmoya) kiritish talab etiladi. Shu bilan birga, musulmon odam qanday biznes loyihalarga va qay usulda investitsiya kiritish kerakligini bilishi lozim bo'ladi, aks holda dinimiz taqiqlagan yoki shubhali loyihalarga sarmoya kiritib qo'yish xavfi paydo bo'ladi. Bu masala yangi va yangi biznes faoliyat turlari paydo bo'layotgan bugungi kunimizda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Yuqoridagi fikrlarga asosan investitsiyalarga bo'lgan islom moliyasi talablari bo'yicha quyidagi jadval shakllantirildi (1-jadval).

Quyidagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, islom moliyasi ikki omil asosida rivojlanishi mumkin.

Birinchisi, qachonki hukumat Islom moliyasini o'zi targ'ib qilsa va odamlarni shunga undasa, qonunchilik, tartib va nizomlarni ishlab chiqsa, markaziy bank tomonidan zarur infratuzilma yaratilsa, Islom moliyasi rivojlanadi. Ikkinchidan, bu bozor talabidan kelib chiqadi. Unda odamlar shunday xizmat va mahsulotlarga talabgor bo'ladilar. O'zbekistonda ushbu ikkala omil ham mavjud. Ya'ni markaziy bank tarafidan Islom moliyasiga keng yo'l ochish uchun qiziqish katta va tushunishimizcha, ular Islom so'ziga emas, balki moliyalashtirish sohasiga ko'proq ahamiyat berishmoqda. Oxir-oqibat bu ular uchun iqtisodiyotga yordam beradigan muhim moliyaviy infratuzilma bo'ladi. Chunki Islom moliyasi va an'anaviy moliya bir-birini to'ldirib keladi. Bu esa, har qanday mamlakat uchun juda sog'lom sharoitdir, ayniqsa, o'z diniy e'tiqodi tufayli bank sohasiga yaqinlashishni istamaydigan insonlarni iqtisodiyotga jalb qilish uchun muhim vositadir.

1-jadval

Mamlakatimizda investitsiyalarni amalga oshirishda islom moliyasi talablari

Aktiv/moliyaviy vosita (instrument)	Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq keladi/muvofiq kelmaydi	Muvofiqlik/nomuvofiqlik borasida umumiy ma'lumot
"Dey-treyding" (kunlik savdo) aksiyalari	Muvofiq emas	Gardkamchilik asosidagi qimor o'yinlarga o'xshaydi (kun davomida oldi-sotdi qilib ulgurish zarur, xatto zarariga bo'lsa ham).
Forex bozorlarida savdo qilish	Muvofiq emas	Valyutaning ayni o'zi emas, balki uning boshqa valyutaga nisbati (ya'ni o'rtadagi farq) savdo qilinadi. Foizlar va kredit yelkasining mavjudligi.
Biznesga investitsiyalar	Muayyan shartlarga rioya qilinsa muvofiq keladi	Biznes va moliyaviy skrinning (tekshiruv) o'tkazish talab etiladi. Biznes skrinning deganda korxonaning biznes faoliyati shariat talablariga javob berish yoki bermasligi tekshiriladi; Moliyaviy skrinning deganda, jumladan korxona olgan foizli kreditlar qanchaligi qaraladi.
Birja investitsiya obligatsiyalari (ETN)	Muvofiq emas	Asosiy/tayanch mulkka ega bo'lmagan pul ko'rinishidagi qarzar
Birja mahsulotlari savdosi	Muayyan shartlarga rioya qilinsa muvofiq keladi	Agar savdo fyuchers shartnomalari ustida yoki mahsulotni yetkazmasdan narxlar o'rtasidagi tafovut ustida o'ynashga qaratilgan savdo shartnomalari (CFD) emas, balki haqiqiy/mavjud mahsulotlar ustida amalga oshirilsa.
Mol-mulk	Muvofiq	Bitim shartlari, jumladan, moliyalashtirish usuliga bog'liq

Manba: iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Hukumat va markaziy bankning Islom moliyasini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlari shu qatlam aholining bank tizimida faol ishtirokini ta'minlash, ularni ham moliya tizimiga qamrab olish uchundir. O'zbekistonda ushbu omillarning ikkisi ham bor: hukumat va aholi tarafidan bunga ishtiyoq katta. Biz markaziy bank va mas'ul shaxslar bilan uchrashib shunga amin bo'ldikki, ular bundan behad mamnun va Islom moliyasini to'g'ri tartibda va markaziy bank nazorati ostida amalga oshirishga istak bildirmoqdalar. Hozirda ular buning ustida ish olib bormoqda, dunyoning turli mamlakatlaridagi tajribani o'rgangan holda aholi talabiga eng mos keladigan uslubni axtarishmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, davlatimiz rahbarining 2017-yil 20-dekabrdagi "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi va 2019-yil 5-martdagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ayni islohotlarga huquqiy zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Buning uchun mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan quyidagi omillarni bartaraf etish lozim:

1. Islom moliyasini o'rgatadigan tashkilotlar, magistr bakalavrlarni tayyorlaydigan yuqori saviyali universitetlar, biznes boshqaruvi sohasi kerak. Shuningdek, nazorat qiluvchi organ – markaziy bankning faoliyat uslubi ham O'zbekistonning ustun jihatlaridan biridir. Xususan, mamlakatimizda ushbu tizimni joriy qilgan boshqa mamlakatlar tajribasining salbiy va ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish imkoniyati bor. Dunyo mamlakatlarida Islom moliyasida joriy qilishda turli usullar va modellari bor.

2. Islom moliyasi asosida xizmat taqdim etyapman, deb o'tirishning o'zi yetarli emas. Balki Islom banklari an'anaviy banklar bilan raqobat qila oladigan yangi mahsulot turlarini joriy qilishda, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ilg'or bo'lishlari darkor.

3. Standart xizmatlarni taklif qilib, turgan joyimizda qotib qolishimiz kerak emas. Aksincha, mijozlarga yaxshi xizmat va mahsulotlar kerak. Mijozlar uchun ikki yoki uch bitimdan tashkil topgan murakkab va foydali mahsulotlarni taqdim qilish lozim. Bu moliya mijozlarga qulay to'lov shartlari, pul oqimlariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

4. Islom moliyasida bankchilik shaklini o'zgartirishda asosiy xavf shundaki, bu jarayon bank faoliyatiga jiddiy ta'sir solishi va hatto bank faoliyati davom etish yoki etmasligi masalasi kun tartibiga chiqishi mumkin (masalan, bunday o'zgarishdan norozi bo'lgan ko'p sonli omonatchilar/mijozlar o'z pullarini bankdan chiqarib/qaytarib olsalar, bank jiddiy moliyaviy vaziyatga tushib qolishi mumkin). O'zgartirish jarayonida bank uchun ba'zi bir yo'qotishlar va daromadlarning kamayishi muqarrar bo'lsa-da, transformatsiya jarayoni bankning kundalik faoliyatiga jiddiy ta'sir qilmasligini ta'minlashga harakat qilish lozim bo'ladi, ya'ni bank faoliyati to'xtab qolmasligi kerak.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Batayeva B.S. (2013) *Islamskiye banki skvoz prizmu razvitiya eticheskix finansov i bankov// Problemy sovremennoy ekonomiki. – № 1. – c. 270-272.*

Gait, A. and Worthington, A. (2008). *An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics*, 35(11), 783-808.

Haydarov O.A., (2022) "LOGISTIKA VA IQTISODIYOT" ilmiy elektron jurnali. 2022-yil 1-son. 362-369 bet.

Lewis M.K. and Algaoud L.M. (2001). *Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd.*

Mirziyoyev Sh. (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.* <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.

Rafik Yunus al-Misri. Fikkh (2014) *imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320.*